

25-Oktyabr, 2025-yil

**PROFILAKTIKA INSPEKTORINI HUQUQBUZARLIKLARNING
VIKTIMOLOGIK PROFILAKTIKASINI AMALGA OSHIRISHDA
MAHALLA YETTILIGI BILAN O‘ZARO HAMKORLIGINI –
TAKOMILLASHTIRISH**

Ismoilov Ismoil Arislon o‘g‘li

O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi 3-o‘quv kursi 321-guruh kursanti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada profilaktika inspektorining huquqbuzarliklarning viktimologik profilaktikasini amalga oshirishda mahalla yettiligi bilan o‘zaro hamkorlik jarayonlarini takomillashtirish masalalari yoritilgan. Maqolada huquqbuzarliklarning oldini olishda mahalla institutining o‘rni, profilaktika inspektorining vazifalari, shuningdek, ularning o‘zaro hamkorlik mexanizmlarini mustahkamlash bo‘yicha taklif va tavsiyalar keltirilgan.*

Abstract: *This article analyzes the improvement of cooperation between the preventive inspector and the ‘council of seven’ in implementing victimological prevention of offenses at the community level. It explores the role of local self-government in crime prevention and proposes practical recommendations for strengthening joint efforts.*

Kalit so‘zlar: *Viktimologiya, xalqaro tajriba, islohotlar, kriminologiya.*

KIRISH

Bugungi kunda jinoyatchilikning oldini olish va huquqbuzarliklarning profilaktikasini kuchaytirish davlat va jamiyat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Shu jarayonda profilaktika inspektorlari mahallalarda fuqarolar bilan bevosita muloqot olib boruvchi, ularning muammolarini aniqlovchi va oldini oluvchi asosiy subyektlardan biridir. Mahalla yettiligi instituti esa jamoaviy nazorat va ijtimoiy mas‘uliyatni ta‘minlashda muhim o‘rin tutadi. Mazkur maqolada profilaktika inspektori hamda mahalla yettiligi o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlikni takomillashtirish masalalari tahlil qilinadi.

ASOSIY QISM

Profilaktika inspektori — bu mahallada ijtimoiy xavfsizlikni ta‘minlash, huquqbuzarliklarning oldini olish va jinoyat sodir etish ehtimoli yuqori bo‘lgan shaxslar bilan manzilli ishlashga mas‘ul shaxsdir. Huquqbuzarliklarning viktimologik profilaktikasi deganda, fuqarolarning jinoyat qurboniga aylanishining oldini olish, ularni huquqiy ong va madaniyat asosida himoya qilishga qaratilgan chora-tadbirlar tizimi tushuniladi. Bu jarayonda mahalla yettiligi, ya‘ni oqsoqol, profilaktika inspektori, xotin-qizlar faoli, yoshlar yetakchisi, posbon, pedagog va imomlarning o‘zaro hamkorligi muhim ahamiyat kasb etadi.

Mahalla yettiligining har bir a‘zosi o‘z faoliyat yo‘nalishi doirasida huquqbuzarliklarning sabablarini va shaxsning ijtimoiy xatti-harakatlarini tahlil etishi lozim. Masalan, yoshlar yetakchisi va pedagog profilaktika inspektori bilan birgalikda huquqbuzarlikka moyil yoshlar ro‘yxatini yuritadi, xotin-qizlar faoli esa ayollar orasida oilaviy zo‘ravonlik va ijtimoiy befarqlik holatlarining oldini olishga xizmat qiladi.

25-Oktyabr, 2025-yil

Hamkorlik samaradorligini oshirish uchun quyidagi yo‘nalishlarda ishlarni takomillashtirish lozim:

- 1) Mahalla yettiligi va profilaktika inspektori o‘rtasida muntazam yig‘ilish va hisobot tizimini yo‘lga qo‘yish;
- 2) Mahalla fuqarolari o‘rtasida huquqiy targ‘ibot ishlarini kuchaytirish;
- 3) Axborot almashinuvi va tezkor profilaktika choralarini raqamlashtirish;
- 4) Mahalla darajasida xavfli oilalar, ishsizlar va voyaga yetmaganlar bilan individual ishlash dasturini yaratish.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, huquqbuzarliklarning viktimologik profilaktikasida profilaktika inspektori va mahalla yettiligi o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlikni mustahkamlash jinoyatchilikni kamaytirish, ijtimoiy barqarorlikni ta‘minlash va fuqarolarning huquqiy madaniyatini oshirishda muhim omildir. Mahalla institutining imkoniyatlarini to‘liq ishga solish, profilaktika inspektorining faoliyatini zamonaviy yondashuvlar asosida takomillashtirish va jamoatchilik nazoratini kuchaytirish natijasida huquqbuzarliklarning oldini olish samaradorligini oshirish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1 Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risidagi qonun O‘RQ-371 14.05.2014
- 2 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni Oila va xotin-qizlar bilan ishlash, mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida PF-81-son 2022-yil 1-mart
- 3 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni Mahalla institutining jamiyatdagi rolini tubdan oshirish va uning aholi muammolarini hal etishda birinchi bo‘g‘in sifatida ishlashini ta‘minlashga qaratilgan chora-tadbirlar to‘g‘risida 2023-yil 21-dekabr, PF-209-son
- 4 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni Jamiyatda ijtimoiy-ma‘naviy muhitni sog‘lomashtirish, mahalla institutini yanada qo‘llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida 2020-yil 18-fevraldagi PF-5938-son